

# **“Yorqin payshanba” - Uzbekistan Airways'dan sevimli aksiyangiz vaqtি keldi**



The image features a young man in casual attire (orange shirt, jeans, backpack) standing on a blue background. He is holding a smartphone in his right hand, which displays a flight booking interface. A yellow suitcase is pulled behind him. The background is split diagonally from top-left to bottom-right, with the left side being blue and the right side being orange.

**UZBEKISTAN airways**

MO	TU	WE	TH	FR	SA	SU
				1	2	3
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31

**2023 yil 7-dekabr - sizni ushbu sanani eslab qolishni taklif qilamiz. Faqat shu kunda Uzbekistan Airways Toshkentdan Anqara, Dehli, Dushanbe, Milan,**

**Pekin, Seul, Tokio, Urumchi, Sharja va ortga qaytuvchi, shuningdek, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Urganch, Farg'onadan Istanbulga va ortga qaytuvchi yo'nalishlar uchun e'lon qilingan jadval tugaguniga qadar barcha aviaqatnovlarga tariflar narxidan 20% chegirma e'lon qiladi.**

Shoshiling, chunki aksiya bir kun davomida amal qiladi – 00:00 dan boshlab 23:59 ga qadar! Aviachiptalarni [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) sayti, mobil ilova, Uzbekistan Airways Sales filiali yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2023-yil 7-dekabr soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
  - kattalar uchun tarifdan – 20%;
  - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20%;
  - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 07.12.2023da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya'ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);
7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Anqara, Dehli, Dushanbe, Milan, Pekin, Seul, Tokio, Urumchi, Sharja va ortga qaytuvchi, shuningdek, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Urganch, Farg'onadan Istanbulga va ortga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

"Yorqin payshanba" aksiyasi doirasida aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) sayti, UzAirways ilovasi orqali, shuningdek, Uzbekistan Airways

Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.

*Uzbekistan Airways O'zbekistondagi eng yirik aviakompaniya hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega. Uning aviaparkida Boeing 767/787, Airbus A320ceo/320neo/321neo/A330, L-410, ATR-72 kabi havo kemalar mavjud.*

*Aviakompaniya 2022-yilda 3,9 milliondan ortiq yo'lovchini tashidi. Yo'naliishlar tarmog'i va havo kemalar parkini doimiy ravishda kengaytirmoqda hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilaydi. Parvoz xavfsizligi esa aviakompaniya uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib qoladi.*

*Uzbekistan Airways muntazam, charter va yuk tashuvchi aviqatnovlarni amalga oshiradi hamda Uzbekistan Airways Express loukoster tizimiga ega.*

*Uzbekistan Airways tarkibiga quyidagi kompaniyalar ham kiradi: "Uzbekistan Helicopters" MChJ, "Uzbekistan Airways Technics" MChJ, "Catering" MChJ, "O'quv-mashq markazi" MChJ.*